Smetali moliyalashtirishdan farqli o'laroq, formula mexanizmi yanada moslashuvchan bo'lib, OTMLarga mablag'larni muassasa ichida taqsimlash uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Formula mexanizmining kamchiliklari universitetlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun hisoblash formulasida qo'llaniladigan individual ko'rsatkichlarga ta'sir qilish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning navbatdagi mexanizmi — natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish. Uning mohiyati shundaki, universitetga ajratiladigan mablag'lar muassasa faoliyatining o'lchanadigan ko'rsatkichlariga (ta'lim, ilmiy tadqiqot, ijtimoiy vazifa) bog'lanadi. Ya'ni qanchalik ko'p va sifatli natija ko'rsatilsa, shuncha ko'p mablag' ajratiladi. Ammo bu yerdagi asosiy kamchilik shundaki, optimal ko'rsatkichlar va moliyalashtirish usullarini tanlash murakkab jarayon bo'lib, noto'g'ri belgilangan mezonlar universitetlarni "raqam ortidan quvish"ga olib kelishi, natijada sifatning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, maqolalar soniga asoslangan baholashda sifat nazorati kuchsiz bo'lsa, noto'g'ri rag'batlar vujudga keladi.

Formulali yondashuv resurslardan foydalanishda shaffoflik va xarajatlarni prognoz qilish imkoniyatini oshiradi. Jon boshiga moliyalashtirish joriy etilganda resurslar taqsimoti aniqroq bo'ladi hamda bu tizim universitetlar faoliyatini monitoring qilish va sifatni ta'minlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilganda yanada samarali natija beradi [8].

Shu bilan birga, Daniel Lang turli mamlakatlar tajribasini o'rganib, moliyaviy rejalashtirishda barqarorlik, shaffoflik va moliyaviy mustaqillik kuchayishini qayd etadi [13].

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu yondashuvning afzalliklarini ko'rsatadi. Albrecht va Ziderman formulali moliyalashtirish smetali tizimga nisbatan xarajatlarni samaraliroq

boshqarish, resurslarni tejash va barqarorlikni oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ular adolat va ijtimoiy tenglik tamoyillarini qo'llab-quvvatlovchi elementlarni kiritish zarurligini qayd etadi [9].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining hisobotida formulali moliyalashtirish nafaqat moliyaviy intizomni kuchaytirishi, balki resurs taqsimotini modernizatsiya qilishda ham muhim vosita ekani ta'kidlanadi. Ayniqsa, soha xususiyatlariga moslashtirilgan og'irlik koeffitsiyentlari qo'shilganda, qimmat yo'nalishlarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlash imkoniyati kuchayadi [10].

Ben Jongbloed va Hans Vossensteynning tadqiqotida "ideal moliyalashtirish modeli mavjud emas" degan xulosa berilgan bo'lsa-da, formulali moliyalashtirish "shaffof, obyektiv va samarali taqsimotning amaliy mexanizmi" sifatida talqin etiladi [11].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, formulali moliyalashtirish tizimi smetali yondashuvga nisbatan resurslardan foydalanishda shaffoflik, samaradorlik va budjet intizomini kuchaytiradi. Biroq ushbu tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun u sifat kafolati va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi mexanizmlar bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

## TADVIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiya oliy ta'lim tizimlariga oid rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar, vazirlik hisobotlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari hamda ochiq statistik bazalardan to'plandi. Olingan ko'rsatkichlar taqqoslash, normativ-hisoblash, formulaviy modellashtirish va tarkibiy ulushlarni solishtirma tahlil qilish usullari orqali qayta ishlanib, xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shu o'rinda tarixan bizning mamlakatimizda qo'llaniladigan moliyalashtirish usullariga yaqin yondashuvlardan foydalangan mamlakatlar tajribalariga e'tibor qaratamiz. Jumladan, Qozog'istonda OTMLar 2017-yilgacha smetali usulda moliyalashtirilgan. Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirining 2017-yil 27-noyabrda "Maktabgacha ta'lim va ta'lim, o'rta, texnik va kasb-hunar, o'rta ta'limdan keyingi, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni jon boshiga namunaviy moliyalashtirish metodikasini tasdiqlash to'g'risida"gi 597-son buyrug'i [14] tasdiqlandi va OTMLar jon boshiga moliyalashtirish tizimiga o'ta boshladilar. 2023-yil 11-iyuldan esa Qozog'iston Respublikasi Fan va oliy ta'lim vazirining "Oliy va (yoki) oliy ta'limdan keyingi ta'limni kredit texnologiyasi asosida jon boshiga normativ moliyalashtirish masalalari to'g'risida"gi 311-buyrug'iga [15] asosan OTMLarni jon boshiga moliyalashtirishning yangi tartibi joriy qilindi. Yangi tartibga ko'ra institut, universitet va akademiya aholiga jon boshiga standart moliyalashtirish amalga oshiriladigan oliy va (yoki) oliy ta'lim muassasalari turlari ro'yxatiga kiritildi. Bundan tibbiy, harbiy, maxsus ta'lim muassasalari, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim tashkilotlari, shuningdek, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Adliya akademiyasi mustasno ekanligi belgilab qo'yildi.

Biz quyida faqat bakalvriat talabalari uchun qo'llaniladigan jon boshiga moliyalashtirish formulasi bilan tanishib chiqamiz.

$N_{zb}$  - Bakalvriatda yiliga bir talaba uchun jon boshiga moliyalashtirish standarti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_{zb} = E_z + L + A + D_p \quad (2)$$

Bakalvriatda yiliga bir talaba uchun jon boshiga moliyalashtirish standarti kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha bir talaba uchun yiliga ta'lim jarayoniga ketadigan xarajatlar ( $E_z$ ); bir talaba uchun yiliga ta'lim muhitiga ketadigan xarajatlar ( $L$ ); ta'lim sohalari bo'yicha o'quv asbob-uskunalari va jihozlarning amortizatsiya xarajatlari ( $A$ ) hamda "Pedagogika fanlari" ta'lim sohasi bo'yicha kasbiy amaliyotni o'tash bilan bog'liq xarajatlar ( $D_p$ ) me'yoridan tashkil topadi.

$A$  va  $D_p$  mos ravishda "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "Muhandislik, qayta ishlash va qurilish sohalari" va "Pedagogika fanlari" ta'lim sohasiga tadqiq qilinadi hamda aniq miqdori oldindan belgilanadi.

$E_z$  esa ma'muriy-boshqaruv xodimlari ( $MBX$ ) va professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ta'lim jarayonida bajariladigan ish uchun bir talaba hisobiga to'g'ri keladigan yillik ish haqi jamg'armasi ( $T$ ) hamda o'quv-uslubiy adabiyotlar xarid qilish, talabalar uchun laboratoriya, amaliy, nazariy va individual mashg'ulotlarni tashkil etishga mo'ljallangan o'quv xarajatlardan ( $X_z$ ) iborat. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki,  $T$  ning qiymatida oliy va (yoki) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tashkilotlarining alohida maqomi uchun beriladigan va bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha talabalar nisbati koeffitsiyenti muhim rol o'ynaydi.  $X_z$  esa qat'iy miqdorlarda belgilanadi.

$L$  esa bir talabaga to'g'ri keladigan o'quv jarayonida ishtirok etmaydigan o'quv va yordamchi xodimlarning (keyingi o'rinlarda –  $O'YX$ ), xizmat ko'rsatuvchi va boshqa xodimlarning (keyingi o'rinlarda –  $XBX$ ) yillik ish haqi



fondi hamda saqlash xarajatlaridan (S) iborat. S ham qat'iy miqdorlarda belgilanadi.

Endi esa Qozog'iston Respublikasi Fan va oliy ta'lim vazirining 2023-yil 11 – iyuldagi 311-son buyrug'i bo'yicha oddiy universitetning iqtisod yo'nalishida ta'lim oluvchi talaba uchun 1 yillik moliyalashtirish hajmini hisoblab ko'ramiz.

$N_{zb} = E_z + L + A + D_p = 551\,641,99 \text{ tenge} + 270\,250,98 \text{ tenge} + 0 + 0 = 821\,892,97 \text{ tenge}$  yoki 1543 AQSh dollarini tashkil etadi.<sup>1</sup>

Endi esa talaba "Pedagogika" sohasida ta'lim oladi deb faraz qilsak, unda bir talaba uchun xarajat 1 033 329,08 tengeni yoki 1940 AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu yerda xarajat yuqoriligining sababi  $X_z$  ning qiymati kattaligi  $D_p$  qiymatning mavjudligi va ushbu sohada bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talaba nisbati "Iqtisodiyot" yo'nalishidagi nisbatga qaraganda kattaligi hisoblanadi.

Bu yerda "Iqtisodiyot" yo'nalishini bazoviy deb olsak, "Pedagogika" yo'nalishi uchun sohaviy tuzatish koeffitsiyenti 1,26 ni tashkil qilmoqda. Bu koeffitsiyentni yuqoridagi hisoblangan qiymatlarni o'zaro bo'lish orqali topamiz: "Pedagogika" / "Iqtisodiyot" =  $1\,033\,329,08 \text{ tenge} / 821\,892,97 \text{ tenge} = 1,26$

Ma'lumot uchun: 2024/2025-o'quv yil uchun kontrakt narxlar 500 tengedan 7,6 mln tengegacha belgilangan yoki 939 AQSh dollaridan 14 275 AQSh dollarigacha.

Keyingi o'rinlarda Rossiya tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu davlatda jon boshiga moliyalashtirish modeliga o'tishga 2012-yildan boshlab jiddiy kirishildi. Rossiya Prezidentining 2012-yil 7-maydagi «Ta'lim va fan sohasida davlat siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 599-sonli qarorida 2013-yildan aholi jon boshiga namunaviy moliyalashtirishga o'tish vazifasi belgilandi [16].

2015-yildan jon boshiga moliyalashtirish formulalari keng qo'llanila boshlandi. 2021-yil 26-martda Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta'lim vazirligining (keyingi o'rinlarda — vazirlik) 209-son buyrug'i bilan oliy ma'lumotga ega yoki oliy ma'lumot oluvchi shaxslarga oliy ta'lim va qo'shimcha kasb-hunar ta'limi sohasida davlat (shahar) xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha namunaviy xarajatlarni belgilashga doir umumiy talablar [17] tasdiqlandi.

Umumiy talablarga ko'ra bir talabaga to'g'ri keladigan xarajat miqdori quyidagicha hisoblanadi.

$$N_{i-jami} = \sum_j n_j^i \quad (3)$$

$n_j^i$  — i-davlat (munisipalitet) xizmatini ko'rsatish uchun normativ xarajatlarning j-chi komponenti xarajatlari hajmi.

$$n_j^i = n_j^{i,baz} * d_j^i * \prod c_j^{ih} \quad (4)$$

$n_j^{i,baz}$  — i-davlat (munisipalitet) xizmatini ko'rsatish uchun bazoviy normativ xarajatlarning j-chi komponentining hajmi (o'quv arayonida qatnashadigan, qatnashmaydigan xodimlarga ish haqi, xo'jalik uchun xarajatla va hokazo)

$d_j^i$  — i-davlat (munisipalitet) xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bazaviy xarajatlar me'yorlarining j-chi komponenti bo'yicha hududiy tuzatish koeffitsiyentining qiymati.

$\prod c_j^{ih}$  — h-tarmoq tuzatish koeffitsiyenti bo'yicha i-davlat (munisipal) xizmatini ko'rsatish xarajatlari bazaviy normativlarining j-tarkibiy qismi uchun tarmoq tuzatish koeffitsiyentlari (c) qiymatlarini chiqarish.

Bazaviy normativ xarajatlarni hisoblashda mehnat, moddiy va texnik resurslarning "tabiiy ko'rsatkichlari" hisobga olinadi, ya'ni ular hujjatlar bilan o'rnatilgan me'yorlar va standartlarga asoslanadi. Agar bunday standartlar mavjud bo'lmasa, statistik tahlillar asosida o'rtacha sarflangan birliklar yoki eng samarali sarflangan birliklar asosida hisob-kitob qilinadi. Birliklarning puldagi ifodasi rasmiy statistik ma'lumotlar yoki o'rtacha bozor bahosida aniqlanadi. Davlat (munisipal) xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha bazaviy normativ xarajatlarning qiymatlari vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Rossiyada jon boshiga moliyalashtirish formulasi mavjud bo'lsa-da, ta'lim sohasiga mas'ul tashkilotlar tomonidan xarajatlar tarixiy yoki belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar asosida hisob-kitob qilinib, xarajat miqdori har yili yangidan belgilanadi [18].

Shundan kelib chiqib hisoblaydigan bo'lsak, masalan, Rossiya Fan va oliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan bazaviy normativlarga ko'ra xarajatlar 2025-yil uchun "Iqtisodiyot" sohasi uchun 105,6 ming rublni yoki 1265 AQSh dollarini, "Fizika" sohasi uchun 121,3 ming rublni yoki 1453 AQSh dollarini tashkil qiladi. Demak, bu yerda sohaviy tuzatish koeffitsiyenti 1,15 ni tashkil qilmoqda.

Ma'lumot uchun: Rossiyada kontrakt to'lovlari narxi hudud va ta'lim yo'nalishi, ta'lim muassasasining obro'yiga qarab 50 000 rubldan 2 000 000 rublgacha yoki 599 AQSh dollaridan 23 950 AQSh dollarigacha yetishi mumkin.

<sup>1</sup> 22.09.2025-yil holatiga Markaziy bank (cbu.uz) tomonidan berilgan kurslar asosida hisoblandi.



Oliy ta'limni formulali moliyalashtirishda sohalar bo'yicha og'irlik koeffitsiyentlarini (subject-area weightings) joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvning nazariy asoslarini quyidagicha asoslash mumkin. Johnes va Schwarzenbergerga [19] ko'ra fan yo'nalishlari xarajatlaridagi tafovut — masalan, laboratoriya asosidagi tibbiyot yoki muhandislik dasturlari auditoriya asosidagi gumanitar fanlarga nisbatan ancha ko'proq resurs talab qiladi. Gonkongning Universitet grantlar qo'mitasi hisobotida ham yuqori xarajatli yo'nalishlarda o'qiyotgan talabalar kam mablag' bilan ta'lim sifatidan zarar ko'rmasligi uchun adolatni ta'minlash maqsadida og'irlik koeffitsiyentlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Xitoy universitetlarida resurslarni samarali sarflashga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotning [21] natijasiga ko'ra resurslarni taqsimlashda fanlararo farqlarni hisobga olmaslik (yoki ularni noto'g'ri hisobga olish) samaradorlikning pasayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

Eronning Shiraz tibbiyot maktabi bo'yicha tadqiqotlarda klinik ta'limning talaba boshiga xarajatlari klinik bo'lmagan dasturlarga nisbatan ancha yuqori ekani aniqlanadi [22]. Buyuk Britaniyada laboratoriya, dala ishlari yoki amaliy instrumentlar bilan mashg'ulotlarni talab qiladigan fanlarga auditoriya asosidagi fanlarga qaraganda yuqori grant miqdorlari ajratilgan (1-jadval) [23].

#### 1-jadval. IHTTning ba'zi davlatlarida sohaviy vaznlar (koeffitsiyentlar) [24]

	Belgiya	Niderlandiya	Irlandiya	Daniya	Finlandiya	Portugaliya
Nolaboratoriya fanlari (masalan, gumanitar va ijtimoiy fanlar)	1	1	1	1	1	1,15 yoki 1,2
Dala ishlari bilan bog'liq fanlar (masalan, informatika, ta'lim)	2	1,5	1,3	1,4	1	1,6-1,9
Laboratoriya fanlari (masalan, muhandislik, fizika fanlari)	2	1,5	1,7	2,1	1,75	2,5
Klinik tibbiyot	3,9	3	2,3	2,1	3	4
Stomatologiya	3,9		4	2,1	3	4
Veterinariya	3	3	4	2,1	3	2,7

1-jadvalda IHTTga a'zo ayrim mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalariga mablag' ajratishda qanday "og'irlik koeffitsiyentlari" (weighting coefficients) dan foydalanilishini ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, har xil fan sohalarini o'qitishning narxi har xil. Masalan, tibbiyot talabasini o'qitish falsafa talabasini o'qitishdan ancha qimmat turadi, chunki u qimmat tibbiy uskunalar, laboratoriyalar va amaliyotni talab qiladi. Mablag'larni adolatli taqsimlash uchun har bir sohaga o'zining "og'irlik koeffitsiyenti" belgilanadi.

Bu amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, fan yo'nalishlari bo'yicha og'irlik koeffitsiyentlari shunchaki texnik ko'rsatkich emas, balki moliyalashtirishni haqiqiy xarajatlar bilan muvofiqlashtirish, adolatni ta'minlash va sifatni barqaror saqlash uchun zarur vositadir.

2020-yilda berilgan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra [25] respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bir talabani bir yillik o'qitish xarajatining eng kam miqdori (stipendiyasiz) 9,3 mln so'mni tashkil etgan. Jumladan, professor-o'qituvchi va xodimlar ish haqlari hamda ish beruvchining ijtimoiy to'lovi uchun 7,9 mln so'm (umumiy xarajatga nisbatan 85,4 %), boshqa joriy saqlash xarajatlari uchun 1,4 mln so'm (umumiy xarajatga nisbatan 14,6 %) shundan, kommunal xarajatlar uchun 0,3 mln so'm (umumiy xarajatga nisbatan 2,8 %), yoki bir birlik xarajatga nisbatan jami xodimlar ish haqi:boshqa joriy saqlash xarajatlari 85,4:14,6 nisbatda. Shuningdek, san'at ta'lim yo'nalishlarida o'qitish xarajatining eng kam miqdori 21,9 mln so'mni (mos ravishda 20,5 mln so'm va 1,4 (0,3) mln so'm), sog'liqni saqlash ta'lim yo'nalishlarida o'qitish xarajatining eng kam miqdori 13,5 mln so'mni (mos ravishda 12,1 mln so'm va 1,4 (0,3) mln so'm) tashkil etgan.

2023/2024-yil uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha o'qitish xarajatlarining [26] yo'nalishlar kesimida eng kam miqdori 12 077,0 mln so'mni, eng ko'p miqdori (san'at sohasida) 28 759,0 mln so'mni tashkil qilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdori o'smoqda. Shuningdek, kommunal va saqlash xarajatlarining barcha sohalar bo'yicha tengligi smetali moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridan birini namoyon qiladi.



Bundan tashqari, biz ko'rib o'tgan jon boshiga moliyalashtirish formulasidagi bir birlik xarajatga nisbatan Qozog'iston misolida o'qituvchi-pedagoglar ish haqi:boshqa xodimlar ish haqi:boshqa saqlash xarajatlarning nisbati 64,2:19,1:16,7 ni (umumiy ish haqiga nisbatan "o'qituvchi-pedagoglar ish haqi:boshqa xodimlar ish haqi" nisbati 77,1:22,9) tashkil qildi. Rossiyadagi tartibga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 72,0:14,2:13,8 (umumiy ish haqiga nisbatan "o'qituvchi-pedagoglar ish haqi:boshqa xodimlar ish haqi" nisbati 83,5:16,5) ga teng.

IHTTga a'zo mamlakatlarda xarajatlarning tuzilmasiga ko'ra o'rtacha "umumiy ish haqi:boshqa saqlash xarajatlari" nisbati 77:23 ga, umumiy ish haqiga nisbatan "pedagog-o'qituvchi ish haqi:boshqa xodimlar ish haqi" nisbati esa 78,3:21,7 ga teng [27].

O'zbekistonda o'rtacha boshqa saqlash xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushining IHTTga a'zo mamlakatlardagi o'rtacha ulushdan pastligining sababi sifatida mamlakatimizda kommunal sohada subsidiyalash amaliyoti mavjudligi va talabalarga taklif etiladigan qo'shimcha xizmatlarni yaratish bilan bog'liq xarajatlarning yuqori emasligi qayd etilishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, jon boshiga moliyalashtirish formulasining elementlarini asosiy uchta guruhga — pedagog-o'qituvchilarning ish haqi, boshqa xodimlarning ish haqi va boshqa saqlash xarajatlarga — bo'lishimiz mumkin. Bunda jami xarajatga nisbatan boshqa joriy saqlash xarajatlari 16 %ni, jami ish haqi xarajatlari 84 %ni tashkil etishi maqsadga muvofiq (shunda "pedagog-o'qituvchi ish haqi:boshqa xodimlar ish haqi" nisbati 80,0:20,0 bo'ladi).

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, bakalavriatda o'qiyotgan bir nafar talaba uchun ketadigan xarajatlari miqdorini biz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi formula orqali hisoblash tavsiya qilinadi:

$$X_i = I_{pi} + I_{bi} + X_{bsi} \quad (5)$$

Bu yerda:

$X_i$ -i-yo'nalishda o'qiyotgan bir talabaga to'g'ri keladigan bir yillik xarajat miqdori;

$I_{pi}$ - i-yo'nalishda o'qiyotgan bir talabaga ta'lim berish uchun jalb etilgan professor-o'qituvchining bir yillik ish haqisi;

$I_{bi}$ - i-yo'nalishda o'qiyotgan bir talabaga ta'lim berish uchun qatnashadigan boshqa xodimlarning bir yillik oylik ish haqisi.  $I_{bi}$   $I_{pi}$  ning qiymatini 0,25ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.  $I_{bi} = 0,25 * I_{pi}$

$I_{bsi}$ - i-yo'nalishda o'qiyotgan bir talabaga ta'lim berish uchun boshqa saqlash xarajatlarning bir yillik miqdori.  $I_{bsi}$   $I_{pi}$  ning qiymatini 0,2381ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.  $I_{bsi} = 0,2381 * I_{pi}$

(0,25 va 0,2381 koeffitsiyentlar  $I_{pi} : I_{bi} : X_{bsi} = 67,2 : 16,8 : 16$  ( $I_{pi} : I_{bi} = 80 : 20$ ) nisbatga erishish uchun ishlatiladi)

Bir nafar talabaga dars o'tuvchi professor-o'qituvchining bir yillik oylik maoshini hisoblash formulasini quyidagi ko'rinishda qo'llash tavsiya qilinadi:

$$I_{pi} = 13 * (I_a + U) * k_i * \prod_{i=1}^n k_{ti} \quad (6)$$

Bu yerda:

$I_{pi}$ - i-yo'nalishda o'qiyotgan bir talabaga ta'lim berish uchun jalb etilgan professor-o'qituvchining bir yillik ish haqisi;

13-12 oylik to'lanadigan ish haqi va 1 oylik ish haqiga teng miqdorda professor-o'qituvchining sog'lig'ini qayta tiklash uchun kompensatsiyaning yig'ma koeffitsiyenti;

$I_a$ -ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan assistent o'qituvchining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshi;

U-ustama to'lovlari;

$k_i$ -i-yo'nalish bo'yicha qonunchilikka muvofiq bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativi;

$k_{ti}$ -i-yo'nalishda o'qiyotgan talab uchun bir yillik ketadigan xarajatlarni hisoblash uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari (hududiy, yo'nalishlar bo'yicha va hokazo).

$$U = I_{isol} * S_{io'ly} \quad (7)$$

Bu yerda:

$I_{isor}$ -oliy ta'lim muassasasida ilmiy salohiyatli (PhD, DSc, dotsent, professor) professor-o'qituvchilar uchun belgilangan bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarining lavozimlar bo'yicha o'рта arifmetik qiymati;

$S_{io'ry}$ -respublika bo'yicha o'quv yili boshiga ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilarning jami professor o'qituvchilarga nisbatan foizi;

Endi esa yuqoridagi formulamiz orqali 2023/2024-o'quv yilida iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan bir talaba ketadigan xarajatlarni hisoblab ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2024-yil 27-sentabrda imzolangan "Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog va rahbar xodimlarining bazaviy lavozim maoshlarini oshirish to'g'risida"gi qo'shma qarorda 2024-yil 1-oktabrdan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari belgilangan.

2024-yil 1-oktabrdan boshlab budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 10 foizga oshirilganligini inobatga olib, 2023/2024-yil o'quv yili uchun belgilangan ish haqi miqdorlarini hisoblab olamiz.

$$U = I_{isor} * S_{io'ry} = 9\,324\,558,3 * 0,398 = 3\,711\,174,19$$

$$I_{pi} = 13 * (I_a + U) * k_i * \prod_{i=1}^n k_{ti} = 13 * (6\,297\,638,2 + 3\,711\,174,19) * 0,0625 = 8132160,05$$

$$I_{bi} = 0,25 * I_{pi} = 0,25 * 8132160,05 = 2033040,01$$

$$I_{bsi} = 0,2381 * I_{pi} = 0,2381 * 8132160,05 = 1936267,31$$

$$X_i = I_{pi} + I_{bi} + X_{bsi} = 12101467,37 \quad (I_{pi}:I_{bi}:X_{bsi} = 67,2:16,8:16)$$

Demak, jon boshiga hisoblangan miqdor 12 101,0 ming so'mni tashkil qildi. Real xarajatlar esa 12 077,0 ming so'mni tashkil qilgan. Bu orqali gipoteza faktini 99,8 % ni tasdiqlayotganini ko'rishimiz mumkin.

Endi ushbu formulani 2025/2026-o'quv yili uchun hisoblab ko'ramiz. Ushbu o'quv yili boshiga ilmiy salohiyat 46,6 %ni tashkil qilmoqda.

$$U = I_{isor} * S_{io'ry} = 10\,257\,014,1 * 0,466 = 4\,779\,768,6$$

$$I_{pi} = 13 * (I_a + U) * k_i * \prod_{i=1}^n k_{ti} = 13 * (7\,620\,142,0 + 4\,779\,768,6) * 0,0625 = 10\,074\,927,3$$

$$I_{bi} = 0,25 * I_{pi} = 0,25 * 10\,074\,927,3 = 2\,518\,731,8$$

$$I_{bsi} = 0,2381 * I_{pi} = 0,2381 * 10\,074\,927,3 = 2\,398\,840,2$$

$$X_i = I_{pi} + I_{bi} + X_{bsi} = 14\,992\,499,4 \text{ so'm yoki } 1\,235 \text{ AQSh dollari}$$

Ma'lumot uchun: 2025/2026-o'quv yili uchun kunduzgi ta'lim uchun to'lov-kontrakt miqdori 7 400 000 so'mda 11 250 000 so'mgacha yoki 610 AQSh dollaridan 927 AQSh dollarigacha etib belgilangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda O'zbekiston sharoitida qo'llash uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin.

— Jon boshiga moliyalashtirish formulasini amaliyotga joriy etishda ta'lim tizimida xarajatlarning asosiy qismini ish haqi xarajatlari tashkil etishini inobatga olib, boshqa komponentlarni ham ish haqi xarajatlariga bog'lash. Jumladan, jami xarajatlarga nisbatan "pedagog-o'qituvchilarning ish haqisi:boshqa xodimlarning ish haqisi:boshqa saqlash xarajatlari" nisbatini 67,2:16,8:16,0 tarzida belgilash. Xususan, jami ish haqi xarajatlarida "pedagog-o'qituvchilarning ish haqisi:boshqa xodimlarning ish haqisi" nisbati 80:20 ni tashkil qiladi.

— Sohalari va alohida komponentlar bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash uchun doimiy moliyaviy natijalar monitoringini olib borish.

— An'anaviy moliyalashtirish va faktga asoslangan holda tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash. Masalan, tibbiyot yo'nalishi uchun 2023/2024-yildagi moliyaviy natijaga asosan 1,47 soha tuzatish koeffitsiyentini qo'llash mumkin.

— Ushbu formulalarni moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalariga moliya yili uchun ajratiladigan budget mablag'lari hajmini aniqlashda pilot loyiha sifatida qo'llash.



— Bozor iqtisodiyoti chuqurlashib, liberallashtirish kuchayib borayotgan sharoitda kvotalar shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida qarash.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6937332>
2. Babin, Mihajlo, and Miloš Erić. "Institutional financing vs. demand financing in higher education." HIGHER EDUCATION FINANCING AND SOCIAL DIMENSION IN THE WESTERN (2015).
3. Marcucci, P.N. and Johnstone, D.B. (2007) Tuition fee policies in a comparative perspective: Theoretical and political rationales
4. I. G. Dezhina & T. N. Nafikova, 2019. "Tuition Fees as a Source of Funding and a Policy Instrument: International Experience," University Management: Practice and Analysis, Federal State Autonomous Educational Institution of Higher Education "Ural Federal University named after the first President of Russia B.N.Yeltsin"; Non-Commercial Partnership "University Management: Practice and, vol. 23(5).
5. Dougherty K. J., Natow R. S. Performance-based funding for higher education: how well does neoliberal theory capture neoliberal practice? //Higher Education. – 2020. – T. 80. – №. 3. – C. 457-478.
6. Salmi J., Hauptman A. M. Innovations in tertiary education financing: A comparative evaluation of allocation mechanisms //Education working paper series. – 2006. – T. 4. – C. 38324.
7. De Martino M., Tkach G. F., Kovalenko S. A. Modern trends in public funding of higher education //Vysshee Obrazovanie v Rossii= Higher Education in Russia. – 2020. – T. 29. – №. 3. – C. 136-152.
8. Lang D. W. Formulaic approaches to the funding of colleges and universities //International handbook of educational policy. – Dordrecht : Springer Netherlands, 2005. – C. 371-391.
9. Albrecht D., Ziderman A. Funding Mechanisms for Higher Education: Financing for Stability, Efficiency, and Responsiveness. World Bank Discussion Papers.
10. Kalamova M. M. et al. Resourcing Higher Education: Challenges, Choices, and Consequences. – OECD Publishing, 2020.
11. Jongbloed B., Vossensteyn H. University funding and student funding: International comparisons //Oxford review of economic policy. – 2016. – T. 32. – №. 4. – C. 576-595.
12. Махкамова, Ш. Ю. Социальные ориентиры стратификационных групп молодежи (по результатам социологических обследований выпускников колледжей и лицеев) / Ш. Ю. Махкамова // Молодежь XXI века: образ будущего : Материалы Всероссийской научной конференции с международным участием, Санкт-Петербург, 14–16 ноября 2019 года / Ответственные редакторы Н.Г. Скворцов, Ю.В. Асочаков. – Санкт-Петербург: ООО "Скифия-принт", 2019. – С. 206-213. – EDN ZQRKUJ.
13. Махкамова, Ш. Ю. Социально-экономические и демографические факторы установления пенсионного возраста / Ш. Ю. Махкамова, О. Ганиев, Ш. К. к. Душамова // Социология в постглобальном мире : Материалы всероссийской научной конференции, Санкт-Петербург, 17–19 ноября 2022 года. – Санкт-Петербург: ООО "Скифия-принт", 2022. – С. 893-895. – EDN UEDFOO.
14. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V1700016137>
15. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2300033056#z38>
16. Нормативно-подушевое финансирование высшего образования: концепции и реалии <https://cyberleninka.ru/article/n/normativno-podushevoe-finansirovanie-vysshego-obrazovaniya-kontseptsii-i-realii>
17. <https://ivo.garant.ru/#/document/400827981/paragraph/1:0>
18. <https://www.cbias.ru/document/ot-28-06-2024-itogovyie-znacheniya-i-velichina-sostavlyayushhih-bazovyih-normativov-zatrat-na-okazanie-gosudarstvennyh-uslug-po-realizatsii-obrazovatelnyh-programm-vysshego-obrazovaniya-otraslevye-korr/>
19. Johnes, Geraint & Schwarzenberger, Astrid. (2007). Differences in Cost Structure and the Evaluation of Efficiency: The Case of German Universities. Education Economics. 19. 10.2139/ssrn.988922.
20. Chapter 36 : Unit Costs <https://www.ugc.edu.hk/eng/ugc/about/publications/report/hervw/ch36.html>
21. Chen, B.; Chen, Y.; Qu, X.; Huang, W.; Wang, P. Do Financial Investment, Disciplinary Differences, and Level of Development Impact on the Efficiency of Resource Allocation in Higher Education: Evidence from China. Sustainability 2023, 15, 7418. <https://doi.org/10.3390/su15097418>
22. Namazi M, Zare S. Calculation of the Cost of Student Education: A Case Study of Shiraz Medical School. J Adv Med Educ Prof. 2021 Apr;9(2):109-122. doi: 10.30476/jamp.2020.86837.1271. PMID: 34026911; PMCID: PMC8106743.
23. The higher education funding system <https://publications.parliament.uk/pa/cm200405/cmselect/cmsctech/220/22008.htm>
24. OECD (2023), "The future of Finland's funding model for higher education institutions", OECD Education Policy Perspectives, No. 76, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/3d256b59-en>.
25. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning minimal xarajatlari qancha? <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-oliy-talim-muassasalarida-oqitishning-minimal-xarajatlari-qancha>
26. 2023/2024-yil uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha o'qitish xarajatlarining miqdori <https://api-portal.gov.uz/uploads/d4f18368-28d8-5b10-0eb6-0442a6ae2907/media.pdf>
27. OECD (2024), Education at a Glance 2024: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/c00cad36-en>.





28. Oliy ta'lim tizimida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi <https://gov.uz/oz/edu/news/view/81877>
29. Pulatov D. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в Узбекистане //Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB. – 2009. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-50.
30. Пулатов Д. Методологические аспекты совершенствования казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан //Каталог авторефератов. – 2017. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-65.
31. Pulatov D., Qulliyev U., Mamanov A. O 'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – Т. 1. – №. 3.
32. Пулатов Д. Х., Угай Д. С. ВЫЯВЛЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ СТРАНОВЫМ РИСКОМ И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИМИ ПАРАМЕТРАМИ С ЦЕЛЬЮ УЛУЧШЕНИЯ ПОЗИЦИИ УЗБЕКИСТАНА В КРЕДИТНОМ РЕЙТИНГЕ ОЭСР //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 151-155.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)